ARXIV HUJJATLARIDA SOLIQ VA YIG'IMLARDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLARINING YORITILISHI

Z.M.Maxkamova
Tadqiqotchi

Turkiston ASSR davrida soliq va yig'imlar tizimi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda shakllanib, uning amaliy ijrosida qator muammo va kamchiliklar yuzaga kelgan. Fuqarolar urushi oqibatlari, xo'jalikning izdan chiqishi, pul muomalasining beqarorligi hamda aholining soliq to'lash imkoniyatlarining cheklanganligi soliq siyosatining samarali amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Mazkur holatlar soliq va yig'imlar sohasida yuzaga kelgan muammolarni hujjatli manbalar asosida o'rganish zaruratini yuzaga chiqardi.

Arxiv materiallari soliq boshqaruvi jarayonida ma'muriy nazoratning kuchli bo'lganini ko'rsatadi. Soliq yig'uvchi organlar faoliyati doimiy ravishda markaziy idoralarga hisobot topshirish orqali baholangan. Bu esa soliq tizimining iqtisodiy rag'batlantiruvchi vositadan ko'ra, davlat nazoratini ta'minlash mexanizmi sifatida faoliyat yuritganini tasdiqlaydi[1].

Ilmiy tadqiqotlarda soliq tizimidagi boshqaruv mexanizmi ijtimoiy qatlamlarga nisbatan tabaqalashtirilgan holda qo'llanilgani qayd etiladi. Dehqon xo'jaliklari, savdogarlar va hunarmandlarga nisbatan soliq undirish usullari turlicha bo'lgan bo'lsada, manbalarda bu jarayonning ko'proq majburiy-ma'muriy xarakterga ega ekani ta'kidlanadi.

Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkiston ASSRda soliq tizimidagi boshqaruv mexanizmi barqaror va yagona tizim sifatida emas, balki siyosiy va iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda o'zgarib borgan jarayon sifatida shakllangan. Markaziy hokimiyatning ustuvor maqsadlari soliq boshqaruvining mazmuni va shakliga bevosita ta'sir ko'rsatgan[2]. Ya'niy markaz manfatlaridan kelib chiqqan holda ba'zida soliq organlari tarkibida qisqartirishlar yoki ma'lum bir lavozimlar joriy etilish holatlari ko'p uchraydi.

Mavjud manbalarda Turkiston ASSRdagi soliq tizimini boshqarish mexanizmi davlat hokimiyatining iqtisodiy sohadagi muhim tayanchi sifatida yoritilib, uning ma'muriy va siyosiy mohiyati alohida ta'kidlanadi. Bu holat soliq tizimini tarixiy jarayon sifatida tahlil qilishda boshqaruv mexanizmlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Arxiv manbalarida soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi xodimlar, asosan, Moliya Xalq Komissarligi tarkibidagi soliq bo'limlari va mahalliy sovetlarning moliya b o'limlarida jamlangan holda ko'rsatiladi. Kadrlar tarkibi bo'yicha tuzilgan ro'yxatlar, shtat jadvallari va buyruqlar orqali ularning soni, mansab pog'onalari va hududlar bo'yicha taqsimlanishi va soliq yig'ish bilan shug'ullanuvchi aholi vakillari asosan mahalliy aholidan bo'lmaganligi aniqlandi. Bu hujjatlar soliq tizimining markazlashgan boshqaruvga asoslanganini tasdiqlaydi[3].

Shuningdek, arxiv hujjatlarida kadrlar bilan bog'liq muammolar - malaka yetishmasligi, kadrlar almashinuvi va intizom masalalari ham qayd etilgan. Ayrim materiallarda soliq yig'ish jarayonida mas'ul xodimlarning faoliyati tanqid qilingan yoki ularning ish samaradorligini oshirish bo'yicha

[1] O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 736-yig'majild, 2-varaq.
[2] O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat ,309-yig'majild, 1-varaq.
[3] O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 310-yig'majild, 4-varaq.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko'rsatmalar berilgani aks etadi[4]. Bunda markaz tomonidan masullarga yuborilgan talabnomalar va dekretlarni tahlil qilish jarayonida ko'p uchratish mumkin. Bu holat soliq tizimidagi boshqaruv mexanizmining kadrlar omiliga qanchalik bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Arxiv hujjatlarida kadrlar tarkibining yoritilishi Turkiston ASSRda soliq tizimi faqat normativ-huquqiy asoslar bilan emas, balki inson resurslari orqali amalga oshirilgan murakkab boshqaruv jarayoni bo'lganini ochib beradi[5]. Kadrlar masalasi soliq boshqaruvi samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida manbalarda alohida o'rin egallaydi.

Turkiston ASSR davrida soliq va yig'imlarni joriy etish hamda undirish jarayonida yuzaga kelgan muammo va kamchiliklar arxiv hujjatlarida muayyan darajada aks ettirilgan. Markaziy va mahalliy moliya organlariga tegishli hisobotlar, ma'ruza xatlari hamda tekshiruv materiallarida soliq siyosatining amaliy ijrosida uchragan qiyinchiliklar qayd etiladi. Ushbu hujjatlar soliq tizimining nazariy jihatdan belgilangan me'yorlari bilan uning joylardagi amaliyoti o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Arxiv materiallarida ko'p uchraydigan muammolardan biri soliq yukining aholiga teng taqsimlanmagani bilan bog'liq masalalardir. Ayrim hujjatlarda soliq me'yorlari mahalliy iqtisodiy sharoit va xo'jalik imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmasdan belgilangani ta'kidlanadi. Natijada dehqon xo'jaliklari va hunarmandlar zimmasiga tushgan soliq majburiyatlari ularning real imkoniyatlariga mos kelmagan holatlar kuzatilgan[6].Albatta bu holatlar ham ma'lum noroziliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, arxiv manbalarida soliq undirish jarayonidagi tashkiliy kamchiliklar ham qayd etilgan. Mahalliy moliya organlari faoliyatida hisob-kitoblarning noto'g'ri yuritilishi, soliq to'lovchilarning to'liq ro'yxatga olinmaganligi hamda hisobotlarda aniqlik yetishmasligi kabi holatlar tilga olinadi. Bu kamchiliklar soliq tushumlarining belgilangan darajada ta'minlanmasligiga olib kelgan[7]. Soliq yig'imlarining og'irligi sababli ro'yxatga olish jarayonlarida insonlar ba'zi mol-mulklarini yashirib ularni ro'yxatdan o'tkazmaganlar.

Bundan tashqari, arxiv hujjatlarida soliq yig'ish jarayonida yuzaga kelgan nizolar va tushunmovchiliklar to'g'risida ham ma'lumotlar uchraydi. Ayrim holatlarda soliq undirishda ortiqcha talablar qo'yilgani yoki belgilangan tartiblarning buzilgani qayd etilgan[8]. Bu holatlar yuqori organlar tomonidan tanqid qilingan va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar arxiv fondlarida saqlanmoqda.

Sovet davrida qabul qilingan soliqqa oid qarorlar ham ko'plab noroziliklarni keltirib chiqargan. Jumaladan quyida qabul qilingan qarorni misol keltirishimiz mumkin:

1918-yil davomida Turkiston ASSRda pul shaklidagi soliqlar deyarli bekor qilinib, boy qatlamlardan favqulodda inqilobiy soliq undirish amaliyoti qo'llanildi

1. Bu holat 1918-yil oxirida Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining maxsus qarorlari bilan mustahkamlandi. Hamda qarorda quyidagi bandlar mustaxkamlanadi: Inqilob manfaatlari va Qizil Armiya ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida Turkiston ASSR hududida favqulodda inqilobiy soliq joriy etilsin.

---

[4] O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat ,763-yig'majild, 6-varaq.
[5] O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 318-yig'majild, 1-varaq.
[6] O'zMA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 112-yig'majild, 5-varaq.
[7] O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat,137-yig'majild, 26-varaq.
[8] O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 25-yig'majild, 34-varaq.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

2. Mazkur soliq, avvalo, boy savdogarlar, sanoatchilar, yirik yer egalari va sobiq mulkdor qatlamlar hisobidan undiriladi.

3. Favqulodda inqilobiy soliq bir martalik bo'lib, uning miqdori mahalliy sovet organlari tomonidan to'lovchining mol-mulk holatidan kelib chiqib belgilanadi.

4. Soliqni to'lashdan bo'yin tovlagan shaxslar inqilobiy tartibda javobgarlikka tortilsin, zarur hollarda mol-mulk musodara qilinsin.

5. Ushbu qarorning ijrosi mahalliy sovetlar va moliya bo'limlari zimmasiga yuklatilsin[9].

Bu qaror Turkiston ASSR hududida fuqarolar urushi va inqilobiy vaziyat sharoitida davlat manfaatlarini himoya qilish hamda Qizil Armiya ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida qabul qilingan favqulodda choraviy hujjatlardan yana biri hisoblanadi. Hujjatga muvofiq, aholining moliyaviy jihatdan nisbatan boy qatlamlari - boy savdogarlar, sanoatchilar, yirik yer egalari va sobiq mulkdorlar zimmasiga favqulodda inqilobiy soliq yuklatildi. Ushbu soliq bir martalik bo'lib, uning miqdori markazlashgan aniq me'yorlarga emas, balki mahalliy sovet organlarining qaroriga va soliq to'lovchining mol-mulk holatiga qarab belgilandi. Bu esa soliq undirish jarayonida subyektivlik va majburlashning kuchayishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda arxiv hujjatlari soliq yukining teng taqsimlanmagani, hisob-kitob va ro'yxatga olishdagi kamchiliklar, malakali kadrlar yetishmasligi hamda zo'ravonlik usullarining qo'llanilganini ko'rsatadi. Natijada noroziliklar kuchayib, qishloq xo'jaligi va iqtisodiy hayot izdan chiqishiga olib kelgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 736-yig'majild, 2-varaq.
2. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 309-yig'majild, 1-varaq.
3. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 310-yig'majild, 4-varaq.
4. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat ,763-yig'majild, 6-varaq.
5. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 318-yig'majild, 1-varaq.
6. O'zMA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 112-yig'majild, 5-varaq.
7. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat,137-yig'majild, 26-varaq.
8. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 25-yig'majild, 34-varaq.
9. Сборник декретов о финансах 1917-1920. – Петербург: 4-ая государственная типография, 1920. – С. 7

[9] Сборник декретов о финансах 1917-1920. – Петербург: 4-ая государственная типография, 1920. – С. 7

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.